



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND  
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





## SHAXSIY HIMOYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH.

**Samanov Ruslan Xolbutayevich**

TerDMAU Energetika va Sanoat muhandisligi Fakulteti Assistent o'qtuvchi

**Bekpo'latova Shahlo**

TerDMAU Energetika va Sanoat muhandisligi Fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsiy himoya vositalarining turlari va ulardan foydalanish tartibi, ularni to'g'ri qo'llash qoidalari, Mehnat kodeksida keltirilgan shaxsiy himoya vositalarini saqlash muddati va berilgan vaqti hamda muddatidan oldin shaxsiy himoya vositalari bilan qayta taminlashga oid malumotlar keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Shaxsiy ximoya vositalari, ishlab chiqarish, himoya vositalari, xodim, xavfsizlik, kaskalar, meyoriy hujjatlat, ximoya kaskalari, O'zbekiston Respublikasida qonunchiligi, mehnat, elektr.

**Annotation:** This article examines the types of personal protective equipment, the procedures for their use, the rules for proper application, storage requirements, and the importance of issuing them on time.

**Keywords:** Personal protective equipment, production, protective equipment, employee, safety, helmets, labor, electricity.

Shaxsiy himoya vositalari - bu xodim tomonidan zararli va xavfli ishlab chiqarish omillari ta'sirini oldini olish yoki kamaytirish, shuningdek ifloslanishdan himoya qilish uchun ishlatiladigan vositalar.

O'zbekiston Respublikasining mehnat haqidagi qonunchilik asoslariga binoan korxonada ma'muriyati ishchi va xizmatchilarni bepul shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi, ularni saqlash, yuvish, quritish, dezinfektsiyalash va ta'minlash ishlarini bajarishi kerak. Barcha himoya vositalari ishlatilishiga qarab jamoa himoya vositalariga va shaxsiy himoya vositalariga bo'linadi. Agar ishning xavfsizligini mashinalarning konstruksiyasi, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish, arxitektura-rejalashtirish yechimlari va jamoa himoya vositalarini qo'llash bilan ta'minlashning iloji bo'lmagan taqdirda shaxsiy himoya vositalari qo'llaniladi. Himoya vositalari texnik, estetika, ergonomika talablariga javob berishi, himoya samaradorligi yuqori bo'lishi kerak. Ular texnologik jarayonda bajarilayotgan ish turiga mos kelishi kerak. Shu ish uchun mo'ljallangan va qabul qilingan tartibda tasdiqlangan texnik hujjatlari bo'lmagan shaxsiy himoya vositalarini qo'llash ta'qiqlanadi. Ular vazifasi, ishlash muddati ko'rsatilgan yo'riqnoma hamda saqlash va ishlatish qoidalari bilan ta'minlanadi.

Shaxsiy himoya vositalari vazifalariga qarab quyidagi 11 turga bo'linadi:

1. Boshni himoya qilish vositalari- kaskalar, shlemlar, shapkalar, shlyapalar.
2. Ko'zni himoya qilish vositalari- himoya ko'zoynaklari.
3. Eshitish a'zolarini himoya qilish vositalari- quloqchinlar.
4. Yuzni himoya qilish vositalari- himoya niqoblari.
5. Nafas a'zolarini himoya qilish vositalari- gaz niqoblar, respiratorlar, havo shlemlari, havo maskalari.





6. Izolyatsiyalovchi kostyumlar- pnevmokostyumlar, namdan izolyatsiyalovchi kostyumlar.
7. Korjomalar- kombinezonlar, yarimkombinezonlar, kurtkalar, shimlar, kostyumlar, plashlar, pustinlar.
8. Qo‘llarni himoya qilish vositalari- qo‘lqoplar.
9. Maxsus poyafzallar- etiklar, kalta etiklar, botinkalar, tuflilar.
10. Ehtiyot moslamalari- ehtiyot kamarlari, dielektrik gilamchalar, manipulyatorlar, tizzani, tirsakni va yelkani ehtiyot qilish moslamalari.
11. Himoyalovchi dermatologik vositalar- yuviladigan pastalar, kremlar, moylar.

Himoya vositalarini ishlatishdan oldin, ishchi ushbu himoya vositalarini ishga yaroqliligi, tashqi tomonida shikastlangan joyi yo‘qligi, changdan tozalab artilgan holda, unga bosilgan shtampga asosan, yaroqlilik muddatini tekshirishi lozim. Dielektrik qo‘lqoplar ishlatishdan oldin ularni barmoqlari tomon burab, teshigi bor-yo‘qligini tekshirib olish zarur. Ishga yaroqlilik muddati o‘tib ketgan himoya vositalaridan foydalanish man qilinadi. Protivogazlar nafas olish a‘zolarini kislorod yetishmaslikdan yoki yopiq taqsimlovchi qurilmalarda avariya holati tufayli metallarning erishi va elektr izolatsiyalovchi materiallarning yonishi natijasida paydo bo‘ladigan o‘ta xavfli gazlar bilan ifloslangan havo bilan zaharlanishdan himoya qilish uchun ishlatiladi. Xodimlar protivogaz va respiratorlardan foydalanishga o‘qitilib, o‘rgatilgan bo‘lishi zarur. Shlangli protivogazlar bilan ishlash jarayonida ishchilar, xavfsiz zonada bo‘lgan, kerak bo‘lganda yordam berishga qurbi yetadigan va tayyor turgan, yordamchi xodimlar nazoratida bo‘lishi lozim. Respiratorlar faqat shaxsiy foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, boshqa kishilarga dizenfeksiya qilingandan keyin ishlatishga ruxsat etiladi.

Kaskalar boshni mexanik shikastlanishdan, yog‘ingarchilikdan, elektr toki urishidan saqlash uchun xizmat qiladi. Elektrostansiya va podstansiyalardagi ishlab turgan elektr uskunalarida (boshqaruv, releli va shunga o‘xshash shchitlardagi ishlardan tashqari), yopiq va ochiq taqsimlovchi elektr uskunalarida, tunellar va quduqlarda hamda havo elektr uzatish tarmoqlarida ta‘mirlash ishlarini bajarish jarayonida hamma ishchilar kaskadan foydalanishlari majburiydir. Kaskalar belgilangan maqsadiga qarab bir necha turda ishlab chiqariladi: cheti soyabonli, fara ushlagichli, olib qo‘yiladigan pelerinali tomchi o‘tadigan joylarda ishlash uchun qo‘llaniladigan, qish mavsumida kiyish uchun mo‘ljallangan issiq shlemlil. Kaskaning barcha detallari o‘tkir qirralar va tomonlardan hamda bo‘rtiqlardan holi bo‘lishi zarur. Kaska engakdan o‘tkazib bog‘lash uchun kamar bilan ta‘minlangan bo‘lishi lozim. Kaska materiali metall buyumlar bilan urilganda uchqun chiqarmasligi kerak. Kaska korpusi ikki tomoni ochiq tok o‘tkazuvchi detallardan holi bo‘lib, 1000 V gacha bo‘lgan elektr uskunalarida elektr toki urishidan himoya qilishi shart. Kaskaning tashqi yuzasi tekis, silliq, darz ketmagan va pufaksiz bo‘lishi zarur.

Himoya vositalari ishlab chiqarilgandan keyin namunaviy va qabul qilish-topshirish sinovlaridan o‘tkaziladi. Qabul qilish-topshirish sinovi — bu





tayyorlovchi tomonidan qabul qilish nazorati paytida tayyor mahsulot uchun o'tkaziladigan nazorat sinovidir. Mahsulotning namunaviy sinovi, ya'ni nazorat sinovi — bu himoya vositasiga tegishli konstruksiyasiga, retsepturasiga yoki tayyorlash texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilgandan keyin himoya vositasining samaradorligi va muvofiqligini baholashdan iboratdir. Ishlatish mobaynida himoya vositalari davriy ishlatish va navbatdan tashqari sinovdan o'tkazib turiladi. Davriy sinovlar — tegishli hujjatlarda belgilangan hajmda va muddatlarda davriy ravishda o'tkazilib turiladigan mahsulotning nazorat sinovlaridir. Navbatdan tashqari sinovlar esa himoya vositalarini ta'mirlash natijasida uning asosiy elektr va mexanik xarakteristikalarini o'zgarmaganligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Navbatdan tashqari sinov hajmi himoya vositasining nosozligi xususiyatiga va ta'mirlash turlariga qarab aniqlanadi. Ta'mirlangandan keyin himoya vositalarini sinash qabul qilish-topshirish sinovlari me'yorida o'tkaziladi. Sinovlarning barcha turlarida himoya vositalarining elektr va mexanik xarakteristikalarini tekshiriladi.

**Xulosa.** Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish mehnat xavfsizligini ta'minlashda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ish jarayonida inson salomatligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan omillar- chang, shovqin, kimyoviy moddalar, yuqori harorat, elektr toki, balandlikda ishlash yoki mexanik jarohatlar-shaxsiy himoya vositalari yordamida sezilarli darajada kamaytiriladi. Shu sababli xodimlarning o'z ish faoliyatiga mos himoya vositalaridan muntazam foydalanishi nafaqat talab, balki zaruriyatdir. Tashkilotlarning zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklanadi. Ular xodimlarni sifatli va yetarli miqdordagi shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashi, foydalanish qoidalarini tushuntirishi va o'quv mashg'ulotlari o'tkazishi kerak. Bu orqali xodimlar himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Xodimlarning esa bu vositalardan muntazam, to'g'ri va mas'uliyat bilan foydalanishi ularning sog'lig'i, xavfsizligi va ish unumdorligini ta'minlaydi. shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish mehnat jarohatlarining oldini olishda eng oddiy, ammo eng samarali choradir. Natijada ish jarayonida xavf-xatar darajasi pasayadi, mehnat muhitining xavfsizligi oshadi, sog'liq uchun xavf kamayadi va umumiy mehnat samaradorligi yaxshilanadi. Umuman olganda, shaxsiy himoya vositalari mehnat xavfsizligining poydevori bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish har bir xodimning o'z salomatligiga bo'lgan mas'uliyati va madaniyatini aks ettiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 22.09.2016 yildagi O'RQ-410-son Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining —Mehnat kodeksi 30.04.2023 yil;
3. O.R.Yuldashev, R.R.Nurmamatova —Mehnat muhofazasi Darslik Toshkent-2019 y —Istiqloq nuri, 428 b.
4. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. T.:2014.
5. Ibragimov E.I, Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. T. :-2014.

